

**ANUSHTAGIN-XORAZMSHOHLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT**

*Dilfuza Matkarimova Odilbekovna*

*UrDU akademik litseyi*

*tarix va huquq fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz yer yuzidagi ilk sivilizatsiyalar vujudga kelgan va jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan zamin hisoblanadi va shulardan Xorazm zamini ilm – fan beshigi sifatida dunyoga tanilgan maskan hisoblanadi. Xorazmda ilm-fanga hech qachon beetibor bo'linmagan shu jumladan Anushteginiylar davrida ham Xorazmda ilm – fanga katta e'tibor berilgan bo'lib maqola shuni yoritishga qaratilgan

**Kalit so'zlar:** Bag'dod akademiyasi, "Bayt ul-Hikma", riyoziyot, ruhshunoslik, fundamental saroy, Bekdili urug'i, toshtor, "Ma'mun Akademiyasi", "Zaxiraiy Xorazmshohiy", fiqh olimi.

Markaziy Osiyo madaniyati sharqshunoslik ilmida ko'pgina olimlar tomonidan o'r ganilgan va u haqda ko'p asarlar nashr etilgan. Bu davr madaniyatining ayrim masalalari O'zbekistonda A.Sa'diy, qori Niyoziy, I.M.Mo'minov, Ya.G'ulomov, V.Zohidov, V.Abdullayev, G.A.Pugachenkova, M.M.Xayrullayev, U.Karimov, P.G.Bulgakov, A.Ahmedov, A.qayumov, S.Karimova, SH.Shomuhamedov, I.Abdullayev, R.G.Muqminova, O.Fayzullayev va boshqa qator olimlarimiz tomonidan yoritib berilgandir. Shu davr Markaziy Osiyo madaniyati tarixida Uyg'onish davri deb ataldi.

Qadimgi madaniyat an'analariga nihoyatda boy bo'lgan Markaziy Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida o'z madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarining kuchayishi samarasi bo'lgan Uyg'onish, Renessans shu davrda boshlandi, Markaziy Osiyo ilm-fan, ma'naviyat, tarixda misli ko'rilmagan namunalar yaratdi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Buxoriy, Shayx Najmuddin Kubro, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud az-Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining qoyalari, cho'qqilaridir. Hattoki arab xalifasi Ma'mun O'rta Osiyo olimlarini xalifalikning markaziga olib ketgani va ular Bag'dod akademiyasining ko'rgi bo'lib, ilm uchun xizmat qilganliklarini yuqorida ko'rdik. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Javhariy, ibn Mansur Marvarudiy kabi olimlar shular jumlasidandir. Markaziy Osiyoning buyuk o'g'lolnari nomi dunyo madaniyati sahifasida oltin satrlar bilan yozib qoldirildi. Bu davrda uch tilda: arab, fors, turkiy tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarga muhrlanib, Sharqning turli burchaklarigacha yetib bordi.

Markaziy Osiyo madaniyati tarixida birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviylik – mustaqillikning samarasini bo'ldi.

Bag'dodda Xorazm, Buxoro, Samarcand, Marv mahallalari vujudga keldi. Xorun ar-Rashid davrida xalifalikning shimoliy qo'shnisi Vizantiya bilan yaxshi aloqalar ornatilib, uning madaniyati va u orqali qadimgi yunon madaniyati boyliklarini o'rgnish boshlangandi. Ma'lum davrda bu faoliyat nihoyatda tez avj oldi, maxsus tarjimonlar qadimgi hind, yaxudiy, fors, ayniqsa yunon tilidagi ko'p asarlarni arab tiliga tarjima qildilar, ularni keng o'rganish, sharhlash ishlari yo'lga qo'yildi. Saroy qoshida "Bayt ul-Hikma" o'z davrining akademiyasi tashkil qilinib, boshqa tillardagi, ayniqsa, yunon tilidagi ilmiy tadqiqotlarni o'rganish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Natijada bu davrda Xunayn va Baxtyashu, Sobit ibn Qurra, Muhammad Kotib Xorazmiy, Yax'ya ibn Adiy, Ishaq ad-Damashqi, Ibn Mayka, Ibn Muqaffalar tomonidan juda ko'plab ilmiy-adabiy, ahloqiy asarlar chet tillardan arab tiliga tarjima qilinib, musulmon dunyosida mashhur bo'ldi. Ma'mun akademiyasidagi olimlar katta hurmat va e'tiborda edilar, chunki ular o'sha davr ilm-fanining eng ilg'or vakillari sifatida nom qozongan edilar.

Bu tarjimalar tufayli qadimgi yunonning mashhur mutafakkirlar olimlari Platon, Aristotel, Yevklid, Plotin, Arximed, Galen, Gippokrat, Porfiriy, Sokrat kabilarning

falsafa, riyoziyot, falakiyat, tabobat, she'riyat, mantiq ilmi va ruhshunoslikka oid asarlari musulmon olamida keng tarqaldi.

X-XII asrlardagi Movarounnahr, Xuroson, Xorazm arxitekturasida turli geometrik bezaklarga, rang-barang shakllarga ega xom va pishiqlaridan qurilgan ibnolar ko'p uchraydi (Arab ota, Xo'ja Iso maqbalari shular jumlasidandir).

Bu davr arxitekturasi va san'atiga mos muhim xususiyatlardan yana biri bir-biridan farq qiluvchi ko'p xonalarga ega bo'lgan fundamental saroylarning vujudga kelishidir. Ilk O'rta asr ilmlari qatorida mexanika (ilm-al-xiyla) va matematikaning bir qismi sifatida geometriya ilmi ham Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy asarlarida maxsus tilga olingan bo'lib, ularning ayrim qoidalardan qurilish arxitekturasida ham keng foydalanganligini ko'ramiz. Masalan, X asr muallifi Abul Vafo al-Bo'zjoniy o'zining "Geometrik qoidalarning hunarmandlarga kerakli tomonlari haqida kitob" asarida turli geometrik usullar yordamida har xil naqshlar, bino bezaklari yasash yo'llari, quruvchi ustalarining tajribalari, badiiy usullari haqida hikoya qiladi.

Bu davrda san'atning turli sohalari rivoj topishi, kitobga bo'lgan qiziqishning oshishi, qo'lyozma fondlar kutubxonalarining shakllanishi O'rta asr O'rta Osiyosi madaniyatining tez sur'atlar bilan rivoj topganligini ko'rsatadi.

Tarixdan ma'lumki, 995 yildan 1017 yilgacha gullab-yashnagan Xorazm davlati Mahmud G'aznaviy tomonidan 1017 yilda mustamlakaga aylantiriladi. Ilm-fan, madaniyat ahllari va hunarmandlar g'aznaviyilar poytaxti G'azna shahriga majburan olib ketiladi. Ular orasida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy boshlik "Ma'mun Akademiyasi" olimlari ham bor edilar. Shunday qilib, Xorazm o'z mustaqilligini qo'ldan berib, goh g'aznaviyilar, goh saljuqiylar asoratida bo'lib turdi. Xalq ommasi birinchi navbatda jamiyatning ongli qatlami Vatan mustaqilligi uchun tinmay kurash olib bordilar. Asli xorazmlik o'g'uz turklarining Bekdili urug'idan bo'lgan Anushtagin Sulton Malikshoh saroyida tez kunda mahramlardan biriga aylanadi. Uni toshtor lavozimiga tayinlaydilar. Tadbirkor va epchil Anushtagin Sulton ishonchini qozonadi hamda Xorazm viloyati hokimligiga sazovor bo'ladi. Keyinchalik bu lavozimni uning o'g'li

qutbiddin Muhammad egallaydi. 1097 yilda unga Xorazmshoh unvoni beriladi. Ammo Xorazm davlati Saljuqiylar sultanatiga tobe-qaram edi. Sulton Malikshoh vafotidan keyin taxtga o'tirgan Sulton Sanjar saljuqiylar sulolasini yanada mustahkamlaydi. Unga Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad ham katta moddiy va harbiy yordam ko'rsatib turadi. U Xorazm taxtida 30 yil shohlik qiladi. 1127 yilda qutbiddin vafot qilgach, Sulton Sanjar uning o'rniga o'g'li Alouddin Muhammad Otsizni taxtga o'tkazadi. Alouddin hukmronligi davri Xorazmshohlar sultanatining eng yorqin sahifalaridan hisoblanadi. Gurganch va Marv madrasalarida iste'dodli mudarrislar qo'lida ta'lim olgan Otsiz juda bilimdon va fahm-farosatli kishi bo'lgan. Gurganchni o'ziga poytaxt qilib olgan Otsiz Xorazmnинг qadimgi shon-shuhratini qaytadan tiklashga astoydil kirishadi. Xorazmdagi notinchliklar va porakandalik tufayli dunyoning turli mamlakatlariga ketib qolgan olim, shoir va hunarmandlarni to'play boshlaydi. Tarqalib ketgan "Ma'mun Akademiyasi"ni qaytadan tashkil qiladi. Unga davrning mashhur olimu-fozillari Gurganch shahriga oqib kela boshlaydilar. Ular orasida Mahmud az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniy, Abdulkarim Sam'onyiy Marvaziy, Yusuf Sakkokiy, Mavlono Faxriddin ar-Roziy, Rashididdin Vatvot, Adib Sobir Termiziy va taniqli boshqa siymolar bor edi.

Gurganchda Otsiz Xorazmshoh tashabbusi bilan qayta tiklangan Akademiyaga asosan filologiya (ilmi adab, ilmi naxv), falsafa, ilohiyot (teologiya), fiqh (islom huquqshunosligi), tabiiy fanlar, ilmi ziroat (dehqonchilik), tibbiyot, riyoziyot va falakaiyot, me'morchilik, suv inshootlari (to'g'onlar, chigirlar, koriz-qanotlar), kemasozlik, temirchilik va boshqa hunarmandchilik turlari (duradgorlik, misgarlik, kulolchilik, kunchilik va h.k.) nazariy asoslari va amaliyoti haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Otsiz asosiy e'tiborni mamlakat hududlarini kengaytirishga, birinchi navbatda, Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishga qaratdi. Buyuk Ipak yo'li karvonlari xavfsizligi ta'minlanishi xorijiy savdogarlarning Gurganch sari oqimini yanada kengaytirdi, mamlakat bozorlari chet el mollari bilan to'lib-toshib ketdi. Xorazm ko'plab xom-ashyo va qimmatbaho mollarini dunyo bozorlariga jo'natdi. Bularning hammasi mustaqillik tufayli amalga oshirildi.

Xorazmshohlar saroyida jahoning turli o'lkalaridan kelgan millat vakillari – turklar, eroniylar, hindu-xitoylar va slavyanlar ijod etganlar. Madaniy aloqalar, madaniyatlarning o'zaro ta'siri Xorazmda ilm-fan va madaniyatning gurkirab rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

Siyosiy mustaqillik ijodiy aql, fikrning rivojiga qancha imkon yaratishi va shu tufayli mamlakat farovonligi oshishini XII asr boshlaridagi Xorazmshohlar sultanati yaqqol isbot qilib ko'rsatdi. Zero, mustaqillik ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyatga tayansagina, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda yuksak yutuqlarga erishish mumkin.

Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh davrida ham ancha xayrli ishlar amalga oshirilgan edi. Bu vaqtida asosan tibbiyot va adabiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Xuddi shu shoh davrida butun dunyoga mashhur tibbiy qomusiy asar “Zaxiraiy Xorazmshohiy” iste'dodli olim va mohir tabib **Ismoil Jurjoni** tomonidan yozilgan. Ismoil Jurjoni Xorazmshoh Otsizning shaxsiy tabibi bo'lgan. Umrining oxirida Otsiz bilan kelisha olmay, Xorazmda ketib, 1137 yilda Marvda vafot etadi.

Xorazmshohlar davlatida, ayniqsa, sulton Takash va Alouddin Muhammad davrlarida madaniy hayot ravnak topgan. Ayniqsa, qasidago'y va dostonchi shoirlar ijodi gullab-yashnagan. Shulardan shoir va olim **Rashididdin Muxammad al-Umary** (1115-1182). U past bo'yli, kalbosh, ko'rimsiz bo'lgani uchun **Vatvot** – jajji qush laqaibni olgan. Vatvot Balxda tug'ilgan, Xorazm madrasalarida ta'lim-tarbiya olgan. Maktublar yozishda yuksak mahoratga erishgani uchun yuqori martabalarga erishib, uch hukmdor – Otsiz, El-Arslon va Takash sultonlar saroyida kotibul-insho vazifasini bajargan. Arabiy va forsiyda nomalar bitishga mohirligidan Xorazm sultonlarining arzandasini bo'lib yashadi.

Rashididdin Vatvot o'zining she'riyat nafosati haqidagi “Xadoyi-kus-sehr fi daqoyiqi ash-she'r” (“She'r san'atining sehrli bog'lari”) kitoibni Xorazmshoh Otsizga bag'ishladi.

Vatvotning “Rasoi'il” (“Nomalar”) to'plami juda qimmatli bo'lib, ikki qismdan iborat: 1. Xalifalar, hukmdorlar (podshohlar), sultonlar, vazirlar, amirlar, valiyalar, qozilar va muftiylarga bitilgan nomalar. 2. Ulamolar, shayxlar, mashhur kishilar, shoirlar, do'stlar va boshqalarga yozilgan maktublar. Bu esa davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini o'rganishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Xorazmshohlar davlatida bundan tashqari, fan va madaniyat, ijtimoiy va siyosiy hayotda yorqin iz qoldirgan buyuk allomalar yashagani manbalardan ma'lum. Shulardan **Al-Hakim Ali ibn Muxammad al-Xijoziy al-Qo'iniy** atoqli shifokor, tibbiy ilmlarning koni, aql bovar qilgan barcha ilmlarning bilimdonidir. Uning tib ilmi va amaliga oid nomalar (rasoi'il) bor. U “Kitob fil-hikmat” asarini adolatli jaxongir Xorazmshoh Otsiz ibn Muxammad sharafiga bitgan.

Faylasuf olim **Baxovuddin Abu Muxammad Abduljabbor ibn Muxammad Sobit ibn Xorogiy** – Marv donishmandlaridan biri, astronomiya va mantiqqa doir asarlar muallifi. Xorazmshoh Otsiz Baxovuddin Xorogiyni ilmini qadrlab Xorazmga chaqirib oladi. Bu olimning tarixga oid kitoblari ham bor.

Amir sayyid imom **Zayniddin Ismoil ibn Xasan** tabib. U nodir asarlari bilan tib va boshqa ilmlarga jon kiritdi. Adolatli jaxongir Xorazmshoh A'louddin Otsiz o'zoq yillar davomida unga izzat-hurmat ko'rsatdi. Xorazmda imom Zayniddin quyidagi asarlarini yozdi: “At-Tib al-mulukiy” (“Shohlar uchun tib kitobi”), “Kitobul-agroz” (“Niyatlar kitobi”), “Kitob fi raddul-falosifa” (“Faylasuflarga raddiya”), “Kitob tadbir yavm va layla” (“Kecha-kundo'z tadbiri”), “Kitob vasfnoma” va h.k.

**Abu Muhammad Mahmud ibn Muhammad ibn Abbos ibn Arslon Xorazmiy** (1099-1172) – ilohiyotchi va tarixchi olim. “Kofiyul-fiqh” va “Tarixi Xorazm” kitoblarining muallifi.

**Faxriddin Muxammad ibn Umar ibn Xusayn ar-Roziy** (1148-1210) – Xorazmshoh Takash sharafiga “Jome' ul-ulum” (“Ilmlar yigindisi”) qomusiy asarini yozgan. Bu haqda quyiroqda batafsil to'xtalamiz.

**Mahmud ibn Umar al-Chag'miniy al-Xorazmiy** – falakiyat, ilmi nujum olimi. “Al-Mulaxxas fil-xay'a” (“Astronomiyadan muxtasar kitob”) muallifi. Bu asarida Chag'miniy sayyoralarning fazo va zamondagi harakati, quyosh va Oy tutilishi, Yer kimirlashi sabablari, fasllarning almashuvi, kecha va kundo'z tengligi, qutblar, ekvator, meridian chiziqlarini aniqlaydi. Asar taniqli falakiyotshunos olimlar tomonidan ko'p marta sharhlangan. Ulardan biri mashhur astronom, olim Saloxiddin Muso ibn Mahmud qozizoda Rumiy tomonidan yozilgan sharh bo'lib, uning bir qancha nusxalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida (ashyo raqami 7761G'III) saqlanadi. Bu asar haqida ham quyiroqda to'xtalamiz.

**Minxojiddin Abu Bakr al-Marg'iloni** – fiqh olimi.

**Faxrul-Xorazm al-Alloma Jorullox Abul qosim Mahmud ibn Umar ibn Muxammad Xorazmiy az-Zamaxshariy** (1075-1144) – naxv-grammatika va lug'at ilmlarida arabu-ajam olimlariga ustozligi uchun an-Naxaviy va al-Lug'aviy laqablarini ham olgan. Ritorika, stilistika, astronomiya va boshqa fanlarga oid juda ko'p asarlar muallifi.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatul-adab”, “Asos al-balogs'a” (“Badiyat asoslari”), “Foiq al-lug'ot” (“Lug'atlarning yaxshisi”), “Atvoq az-zaxab” (“Oltin shoda”) va ayniqsa qur'oni karimning chuqr tafsiri bo'lgan “Al-Kashshof” asarlari jahon madaniyati ravnaqiga qo'shilgan durdona asarlardir.

**Sirojiddin Ya'kub Sakkokiy** sadrul-alloma, Shaxobiddin Nasaviy yozishicha, u ilmi hay'at, falakiyat, ya'ni astronomiyani shu qadar chuqr bilganki, shoirona aytganda u bir nafasi bilan yulduzlarni sehrlab, daryo suvlarini oqizmay qo'yardi. Ilm-fanning

barcha sohalaridan asarlar yozgan. Sulton Alouddin Muhammad va uning onasi Turkon xotun Sakkokiyga yuksak hurmat ko'rsatganlar.

**Abdul-Karim ibn Muhammad ibn Mansur Abu Sa'id ibn Abul-Mo'zaffar al-Marvoziy as-Sam'oniy** (vaf. 1167) – Marvning mashhur ulamolaridan. Adib va tarixchi. Ko'p mamlakatlarni kezgan. Aziz avliyolar va podshohlar tarixidan mashhur. “Kitobul-ansob” (“Nasablar tarixi”) va “Xayli tarixi Bag'dod” asarlari muallifidir.

**Majididdin Nasaviy** – Xorazmshoh Alouddin Muhammadga bag'ishlab, fors tilida “Shahonshoxnama” dostonini yozgan.

**Shaxobiddin Nasaviy** – shoir, tarixchi, davlat arbobi. Xorazmshoh sulton Jaloladdin Manguberdi devonida munshiylit vazifasida xizmat qilgan. Ba'zi vaqtarda sulton Jaloladdining elchisi sifatida boshqa mamlakatlarga davlat ishlarini xal etish uchun borgan. Sultonning podshohlari va maliklarga yuboradigan maktublari va boshqa hujjatlarni to'zgan. “Siyrati sulton Jalod ad-Din” asarining muallifi.

**Muhammad ibn Najib Bakron** – jo'g'rofiyun olim. Sulton Alouddin Muhammad uchun jahon xaritasini to'zgan va unga “Jahonnomma” deb atalgan sharhlar yozgan.

Xorazmshohlar davrida ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnaganligini biz o'tmish allomalarimizdan qolgan arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozmalar orqali bilamiz. Ushbu qo'lyozmalarni izlab topib, hozirgi avlodlarimizga yetkazish manbashunoslarning Mustaqil Vatanimiz oldidagi asosiy burchidir.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Shihobiddin Muhammad an Nasaviy “Siyrat as sulton Jalol ad-Din Mangburni” 1999-yil
2. Rajab Jumaniyozov “Qadimiylar Xorazm tarixi” 1994-yil
3. Z.M Bunyodov “Xorazmshohlar Anushteginiylar davlati” 1986-yil
4. Abulg'oziy Boxodirxon “Shajarai Turk” 1992-yil